


**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA
INSTITUTI**



SOTSILOGIYA fanidan

MUSTAQIL ISH

Bajardi: Azizova D.A. SXBI 301

Qabul qildi: UrazaliyevaG.B.

TOSHKENT - 2014



**MUSTAQIL
O'ZBEKISTONDA
SOTSIOLOGIIYANING
TARAQQIYOTI**

REJA:

- ❖ *Markaziy Osiyoda sotsiologik qarashlarning rivojlanishi*
- ❖ *Bugungi kunda sotsiologiyaning rivoji*

SOTSIOLOGIYA-MUSTAQIL IJTIMOIIY FAN SIFATIDA O'Z METODOLOGIYASI VA NAZARIYASIGA EGADIR



Zardushtiylkning asosi bo'lgan «Avesto» miloddan avvalgi VII asrda qadimgi Xorazmda yaratilgan bo'lib, uning ma'nosi qonun – qoidalar demakdir. Unda asosan yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashlar aks ettirilgan. Bu kuchlar o'rtasidagi kurash, ijtimoiy jarayonlarni yondashuv orqali hal etish uchun turli oqimlar vujudga kelgan. Xususan: mitraizm oqimidir. «Mitraizm – Xudo Mitraga sajda qilish bilan bog'lik bo'lgan oqim». Bu oqim Yevropa va Rim imperiyasidan tortib ahamoniylar, kushoniylar amal qilgan davrlarda ham o'z ta'sirini ko'rsatib kelgan.

**Sharq sotsiologiyasida
Xitoy
mutafakkirlarining
qarashlari muhim
ahamiyat kasb etadi.
Diniy mutaasiblik va
kosmologiya g'oyalari
Xitoy hukmdorlarini
azaldan osmoniy
hukmdor mavqesiga
intilish orzulari yo'lida
xizmat qilib kelgan.**



**KONFUTSIY KISHILAR O'RTASIDAGI
MUNOSABATLAR TIZIMINI BESH KO'RINISHGA
AJARATADI:**

Ota va farzand



Er va xotin



Aka – ukalar



Turli oilalar



Hukmdor va fuqarolararo munosabatlar



Movarounnahr hududida yashagan mutafakkirlarning sotsiologik qarashlari e'tiborga molikdir. Bu borada Abu Mansur al-Moturidiyning xizmatlari beqiyos. Moturidiya maktabi asoschisi Abu Mansur al-Moturudiy o'z asarlarida din, jamiyat, jamoa, ijtimoiy munosabatlar va shaxs haqida ta'limotlar yaratgan. Inson shaxsi va mavqei masalasi, uni turli ijtimoiy-siyosiy, diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi konsepsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu konsepsiya **murosaviy muvozanat konsepsiyasi** deb atalib, unda islomni anglash, ijtimoiy-siyosiy muhit, xalq turmushi, mentalitet va insoniy yondashuvlar sintezi o'z aksini topgan. U jamoa va jamiyatni mohiyatan asoslab berishga harakat qiladi. Al Moturidiy axloqiy tanlov, ixtiyor erkinligi haqida fikr yuritib, ularni jamoaga, guruhga qarshi bo'lmasligi va shaxs davlatning oldida mas'ul bo'lgani kabi davlat ham shaxs oldida mas'uliyatli ekanligini alohida e'tirof etadi. U jamoatchilik fikri bilan jiddiy shug'ullangan. Ana shu konsepsiya sunniylik mazhabining Movarounnahrda keng yoyilishiga hissa qo'shdi.



Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy o'zining «Fozil shahar ahli qarashlari haqida kitob», «Siyosat al-Madaniya» kabi asarlarida oliyjanob jamiyat, adolatli tuzum, odil hukmdorlar haqida o'z fikr mulohazalarini bayon qilgan. U o'zi yashagan davrning ijtimoiy tizimini, uning ziddiyatlari va bu ziddiyatlarning kelib chikishidagi muammolarni nazariy jihatdan tahlil qilishga uringan. Davlat va jamiyat masalasida davlatni ijtimoiy tuzumini boshqaruvchi tashkilot deb, uni muvaffaqiyatli boshqaruv esa ko'p jihatdan davlat boshlig'i, hokimning xarakteriga, fazilatlariga bog'lik deb bilgan. «Fozillar shahrining birinchi boshlig'i, - deb ta'kidlagan Forobiy, shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib, u tabiatan o'n ikkita xislat – fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur».



Forobiy olamni anglashda vorisiylik omilini ham alohida ta'kidlab o'tadi. Uning fikricha, inson barcha haqiqatlarni o'zini qisqa umri davomida anglashga, tabiat va jamiyatning barcha sir-asrorlarini tushunib, idrok eta olishga qodir emas. Shuning uchun u o'zidan oldingi allomalarning fikr-xulosalarini hech ikkilanmay o'zlashtirish lozim deb ta'kidlaydi. Forobiy bulardan tashqari ijtimoiy fikr masalalariga ham katta ahamiyat beradi.

А РАЙХОН БЕРУНИЙНИНГ АСОСИЙ СОЦИОЛОГИК АСАРЛАРИ:


«Qadimgi xalqlardan qolgan
yodgorliklar»



«Mineralogiya»



«Hindiston»



Абу Райхон Беруний


Zahiriddin Muhammad
Babur





Ibn Sino «Shayx-ur-Rais» degan nom olgan. Jamiyat a'zolarining erkin yashashlari uchun o'sha jamiyat, davlat va odamlar birgalikda faoliyat ko'rsatishi shartligini asoslaydi.

Ibn Sino (980-1037)



Temuriylar davri ilm – fan va madaniyat taraqqiyotining oltin davri sifatida hanuzgacha jahonni hayratga solib kelmoqda. Bu davrda ko'plab qomusiy olimlar, shoirlar va san'atkorlar yetishib chiqdi. Ular orasida ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy (1441-1501) alohida ajralib turadi. Uning asarlaridagi badiat bilan birgalikda falsafiy-ijtimoiy qarashlar hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Navoiy o'z asarlarida inson qadr-qimmatini, nomus oriyat va insoniy g'urur tushunchalari, inson erki, tafakkur tarzi kabilarga ahamiyat berib o'tadi. Shuningdek, jamiyatdagi ziyolilarga juda ko'p narsalar bog'liq ekanligi, uning «Agar mamlakat xarob bo'lsa, shohdan xafa bo'lma, bu ziyolilarning, ilm-ahlining gunohidir» degan fikri ahamiyatlidir. U asarlarida adolat, ijtimoiy adolat prinsiplari haqida to'xtalib adolat mezonlarini buzilishi, jamiyat ijtimoiy hayotiga katta salbiy ta'sir ko'rsatishini uqtirib o'tadi.



Alisher Navoiy
ijtimoiy guruh va
tabaqalarga tavsif
beradi va ularning
qaysi biri yaxshi yoki
yomon, qaysi biri
insoniylikka, xalqga,
mamlakatga foydali
yoki zararli ekanligini
bayon etadi.



Musulmon Sharqi mintaqasida turkiy tilda ijod qilgan Yusuf Xos Hojib ham inson, inson erki, tafakkuri, yashash tarzi, siyosatga oid ko'plab qimmatli fikrlar bildirgan. «Qutadg'u bilig» asarida axloq, siyosatshunoslikka doir ma'lumotlar bor. Bu asarni turkiy xalqlarning axloqiy, ijtimoiy qomusi deb atashimiz mumkin. Kitobda ezgulik va yovuzlik, halollik va haromlik singari tushunchalar obrazli qilib, misralarda, maqollarda ochib berilgan.


Yusuf Xos Hojib til va dil birligini ham talqin etadi. Jamiyat – aql – zakovot orqali rivojlanadi deb ta'kidlaydi. Yusuf Xos Hojib ko'proq jamiyatning rivojlanishi fan, ta'lim sohalariga bog'lik ekanligini bildirib, fan va ta'lim sotsiologiyasini asoslab yaratib beradi. U sotsiologiyani falsafa fani kabi donishmandlik fani deb e'tirof etadi



Oliy va o`rta maxsus ta'lim Vazirligining buyrug`i asosida Toshkent Davlat universiteti Ilmiy Kengashi 1989 yilning may oyida falsafa-iqtisod fakulteti tarkibida sotsiologiya bo`limi va kafedrasini tashkil qilish haqida qaror qabul qildi. Shu yili sotsiologiya kafedrasini tarkibida «Sotsiologik tadqiqotlar» laboratoriyasi ham tashkil topgan. 1989-yilning sentyabr oyidan boshlab 1993-iyul oyigacha kafedraga dots. Nikolaev S.I. mudirlik qildi. O`sha davrda kafedrada prof. Osminin V.A., dots. Ubaydullaeva R.T, dots. Haydarov A.H., katta o`qituvchilar: Xayrulina V.A., Jo`raev S., o`qituvchilar: Qodirova Sh., Latipova N.M.lar faoliyat ko`rsatgan.

Sotsiologiya kafedrasida Davlat ta'lim standartiga muvofiq quyidagi umumkasbiy va maxsus fanlar o`qitiladi:

- **sotsiologiya**
- **sotsiologiya tarixi**
- **mehnat sotsiologiyasi**
- **iqtisodiy sotsiologiya**
- **sotsiologik tadqiqot metodi va texnikasi**
- **oila sotsiologiyasi**
- **jamoatchilik fikri sotsiologiyasi**
- **sharq mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari**



Sotsiologiya bo`limi 1989 yil Toshkent Davlat universiteti falsafa fakulteti tarkibida tashkil topgan. Shu yildan boshlab sotsiologiya bo`limiga o`zbek va rus guruhlariga talabalar qabul qilina boshlagan. 1994 yildan boshlab birinchi sotsiolog mutaxassislar bitirib chiqqan. Shu yildan boshlab har yili o`zbek va rus guruhlarini shu kungacha talabalar bitirib chiqmoqda. Sotsiologiya fani hozirgi kunda sotsiolog mutaxassislariga o`qitilishi bilan bir qatorda mutaxassis bo`lmagan fakultetlarda ham sotsiologiya fani o`qitilmoqda. Sotsiologiya bo`limini bitirib chiqqan sotsiolog mutaxassislar respublikamizning barcha kollejlarida, litseylarida, «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o`rganish markazi, Prezident huzuridagi Mintaqaviy va Strategik tadqiqotlar instituti, Sotsiologik tadqiqot markazlarida, davlat hokimiyati, fan va ta'lim sohasida, bundan tashqari jamiyatni barcha boshqaruv tizimlarida faoliyat olib borishlari mumkin.

O`zbekiston Milliy universiteti sotsiologiya mutaxassisligi bo`yicha kadrlar tayyorlaydigan magistratura yo`nalishi mamlakatimizda sotsiologiya magistri akademik darajasidagi mutaxassislar tayyorlaydigan yagona Oliy o`quv yurti hisoblanadi. Bu magistratura bo`limi 1999-yilda Ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti sotsiologiya kafedrasida qoshida ochilib, unda «Sotsiologiya nazariyasi, metodologiyasi, va tarixi» mutaxassisligi bo`yicha magistr sotsiologlar tayyorlanadi. Magistraturada ta'lim o`zbek va rus tillarida olib boriladi. Har yili sotsiologiya mutaxassisligi magistratura yo`nalishiga o`rtacha 9-10 talaba qabul qilinadi. Hozirgi kungacha magistraturani 64 talaba bitirib, sotsiologiya magistri akademik darajasiga ega bo`ldilar. Magistratura bo`limini bitirgan magistrning aksariyati o`z mutaxassliklari bo`yicha ta'lim sohasi va xalq xo`jaligining turli jabhalarida faoliyat olib borishmoqda.

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSTITETI “SOTSILOGIYA VA MILLIY G’OYA” KAFEDRASI

Kafedra 1964-yilda tashkil topgan bo‘lib turli nomlar bilan atalib kelingan. 2012-yildan hozirgacha «Sotsiologiya va milliy g‘oya» kafedrasi deb nomlanib kelinmoqda. Hozirgi kunda «Sotsiologiya va milliy g‘oya» kafedrasida 1 ta fan doktori (t.f.n., prof. B.Siddiqov), 6 ta fan nomzodlari dotsentlar (K.Farfieva, F.Kulueva, A.Mirzaev, F.Tolipov, I.Minbaeva, X.Mannopov, X.Ahmedova, A.Mirzaev, K.Farfieva, X.Mannopov, I.Minbaeva), 13 ta katta o‘qituvchi, 2 ta assistent mehnat qilishmoqda. Kafedraning birinchi rahbari prof. S.B.Qoraboev bo‘lib, kafedrani 1971-yilgacha boshqargan.



**Kafedra mudiri: Ps.f.n,
dotsent K.A. Farfiyeva**



**E`TIBORINGIZ
UCHUN
RAHMAT**